TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жажонгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Дие́ра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Salardbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEKANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmiddinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIYAVIIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIYAVIIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	



AGROSANOAT INNOVATSION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich	
TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	2352
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	



XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Qurbonov Xayrilla

Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU)

E-mail: kh.kurbonov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlari kapitali tarkibida xususiy kapitalni tarkibiy optimallashtirish masalalari tadqiq etilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida jami kapital va uning tarkibiy elementlarining yillik o'sish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali xo'jalik faoliyati hisobiga shakllanadigan muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik omili sifatida taqsimlanmagan foydaning xususiy kapital ulushi o'sishidagi rolini oshirish imkoniyatlari baholangan. Izchil iqtisodiy o'sishning oltin qoidasi asosida moliyaviy samaradorlik va muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik dinamikasining xususiy kapital o'sish sur'atlariga asoslangan modifikatsiyasi tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: xususiy kapital, qarz kapitali, nizom kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, aktivlarning dinamik o'sishi, prinsipal-agent muammosi.

Abstract. This scientific article examines the issues of structural optimization of equity capital within the total capital structure of joint-stock companies. An analysis of the annual growth dynamics of total capital and its structural components in joint-stock companies is conducted. As a result of the study, the possibilities of enhancing the role of retained earnings as a factor contributing to the growth of equity capital and ensuring balanced financial stability through efficient business activities are assessed. Based on the golden rule of sustainable economic growth, a modified framework for analyzing financial efficiency and balanced financial stability dynamics, grounded in equity capital growth rates, is systematized.

Key words: equity capital, debt capital, authorized capital, additional capital, reserve capital, retained earnings, dynamic growth of assets, principal-agent problem.

Аннотация. В данной научной статье исследуются вопросы структурной оптимизации собственного капитала в составе капитала акционерных обществ. Проведён анализ динамики годового роста совокупного капитала и его структурных элементов в акционерных обществах. В результате исследования оценены возможности повышения роли нераспределённой прибыли как фактора роста доли собственного капитала и обеспечения сбалансированной финансовой устойчивости за счёт эффективной хозяйственной деятельности. На основе «золотого правила» устойчивого экономического роста систематизирована модификация динамики финансовой эффективности и сбалансированной финансовой устойчивости, основанная на темпах роста собственного капитала.

Ключевые слова: собственный капитал, заёмный капитал, уставный капитал, добавочный капитал, резервный капитал, нераспределённая прибыль, динамический рост активов, проблема принципал–агент.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragida global miqyosdagi iqtisodiy noaniqliklar, moliya bozorlaridagi o'zgaruvchan konjunktura hamda kapital resurslariga kirish imkoniyatlarining cheklanishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, tashqi qarz instrumentlari qiymatining oshishi, foiz stavkalarining yuqorilashi va investitsiya muhitining murakkablashuvi korxonalar faoliyatida ichki moliyaviy salohiyatga tayanish strategiyasining ustuvor ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu sharoitda xususiy kapitalning optimal tarkibini shakllantirish hamda uning barqaror manbai sifatida taqsimlanmagan foydaning rolini oshirish aksiyadorlik jamiyatlari uchun muhim strategik vazifaga aylanmoqda.



Ichki moliyaviy salohiyatni oshirish, avvalo, jamiyat faoliyati natijasida yaratilgan qiymatni qayta investitsiyalash, dividend siyosati va reinvestitsiya bo'yicha qarorlarni muvozanatlash orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda taqsimlanmagan foyda tashqi moliyaviy resurslarga nisbatan arzon, barqaror va nisbatan past risk darajasiga ega moliyalashtirish manbai sifatida namoyon bo'lib, kapital tarkibini moliyaviy barqarorlikka asoslangan model asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada taqsimlanmagan foydaning o'sishi jamiyat sof aktivlari hajmini oshirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ichki moliyaviy salohiyatni izchil rivojlantirish, xususi kapital tarkibida taqsimlanmagan foydaning optimal ulushini belgilash va uni strategik moliyaviy boshqaruv instrumenti sifatida qo'llash zamonaviy korporativ moliya nazariyasi va amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, aksiyadorlar manfaatlarini muvozanatli himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xususi kapital va uning tarkibida taqsimlanmagan foydaning kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli bo'yicha ko'plab yetuk iqtisodchi olimlar tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, R. Breyli va S. Mayers taqsimlanmagan foydani ichki moliyalashtirishning muhim va nisbatan arzon manbai sifatida baholab, uning aktivlarga yo'naltirilishi kompaniyalarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashini asoslab berganlar [1].

G. Donaldson tomonidan taklif etilgan moliyalashtirish iyerarxiyasi (Pecking Order Theory) konsepsiyasida korxonalar faoliyatida, avvalo, ichki moliyaviy resurslardan, ya'ni taqsimlanmagan foydadan foydalanish, keyingi bosqichda qarz mablag'larini jalb etish va faqat zarur hollarda aksiyalar chiqarish orqali moliyalashtirish qarorlarini qabul qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [2]. Axborot assimetriyasi nazariyasi doirasida S. Mayers va N. Majluf ichki moliyalashtirish manbalaridan foydalanish tranzaksion xarajatlarni minimallashtirish imkonini berishini ta'kidlab, taqsimlanmagan foydaning faoliyat samaradorligini oshirishdagi rolini tizimli asoslab berganlar [3].

F. Blek va M. Shouls dividendlar va reinvestitsiya o'rtasidagi optimal nisbat nazariyasini ishlab chiqib, foydaning qayta investitsiya qilinishi aksiyadorlar uchun aksiya qiymatini oshirishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, nisbatan past dividendlar va yuqori reinvestitsiya hajmi kompaniyalarning o'sish salohiyatini kengaytiradi hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [4].

Shuningdek, J. Lintner taqsimlanmagan foydani strategik moliyaviy resurs sifatida ko'rib, uni maqsadli tarzda jamg'arish korxonalarga investitsion xarajatlarni moliyalashtirish va yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini saqlab qolishini asoslab bergan. Bu esa istiqbolda xususi kapital rentabelligini (ROE) oshirish uchun muhim zamin yaratadi [5].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola doirasida tadqiqotlar ilmiy bilishning abstraksiyalash usuliga asoslangan holda olib borildi. Shuningdek, empirik tadqiqot usullaridan statistik kuzatish, taqqoslash, tizimli-dekompozitsion tahlil hamda sintez usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Mazkur metodlar aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibining shakllanish xususiyatlarini aniqlash, ularning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash va xulosalarni ilmiy asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalining moliyaviy tarkibiga ichki omillar bilan bir qatorda tashqi muhit omillari ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bois barcha aksiyadorlik jamiyatlari uchun yagona va universal optimal kapital tarkibi mavjud emas. Oldingi bo'limlarda qayd etilganidek, kapitalning optimal tarkibi shunday mezonlar asosida belgilanadiki, bunda moliyaviy riskning minimal darajasi ta'minlangan holda xususi kapitalning maksimal rentabelligiga erishiladi.

Mazkur yondashuv aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini optimallashtirish jarayonida qiymat konsepsiyasiga asoslangan moliyaviy modelni shakllantirish imkonini beradi. Bunday model kapital manbalarining samarali nisbatini belgilash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyati kapitalari tarkibini optimallashtirish modeli ¹.

Mazkur model xususiy kapital rentabelligi, moliyaviy risk va likvidlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, xususiy va qarz kapitalining optimal nisbatini aks ettiradi. Modelning asosiy maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida barqaror moliyaviy holatni shakllantirish orqali qiymatni oshirishdan iborat.

Ushbu modelni amaliy faoliyatda qo'llash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va mazkur jarayon 1-rasmda tizimli ravishda ifodalangan. Model asosida olib borilgan tahlillar aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibi hamda uni boshqarish siyosati samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlarida jami kapital, uning manbalari va ulushi dinamikasi to'g'risida ma'lumot (2018–2023-yillar), mln so'mda²

Ko'rsatkichlar / Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, % (+/-)
"Navoiyazot" AJ							
Xususiy kapital	1198738	1123241	1153579	2339069	3161372	2959701,6	246,9
Jami passivlardagi xususiy kapital ulushi, %	12,9	9,0	8,2	12,8	18,0	17,3	+4,4
Qarz kapitali	8115976	11322498	12858495	15889374	14418013	14136937,8	174,2
Jami passivlardagi qarz kapitali ulushi, %	87,1	91,0	91,8	87,2	82,0	82,7	-4,4
Jami passivlar	9314714	12445739	14012075	18228443	17579385	17096639,4	183,5

¹ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

² Aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



"Qo'qonbiokimyo" AJ							
Xususiy kapital	104212,8	114975,3	120717,1	124345	130776,5	140458,1	134,8
Jami passivlardagi xususiy kapital ulushi, %	55,2	62,6	63,4	67,8	70,6	65,5	+10,3
Qarz kapitali	84443,56	68667,66	69780,47	59149,85	54467,33	73954,18	87,6
Jami passivlardagi qarz kapitali ulushi, %	44,8	37,4	36,6	32,2	29,4	34,5	-10,3
Jami passivlar	188656,4	183643	190497,6	183494,9	185243,9	214412,3	113,7
"Qizilqumsement" AJ							
Xususiy kapital	1453471,9	1665887,9	2040107,3	2263631,7	2562455,3	3030788,3	208,5
Jami passivlardagi xususiy kapital ulushi, %	91,3	95,9	93,5	85,5	91,8	93,6	+2,3
Qarz kapitali	138414,3	70952,5	140803,7	384430	229880,4	208526,2	150,7
Jami passivlardagi qarz kapitali ulushi, %	8,7	4,1	6,5	14,5	8,2	6,4	-2,3
Jami passivlar	1591886,2	1736840,4	2180911	2648061,8	2792335,7	3239314,6	203,5

Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, "Navoiyazot" AJda aktivlarga avanslangan kapitalning tahlil qilinayotgan davr boshi va oxiriga nisbatan umumiy o'sish sur'ati 183,5 % ni tashkil etgan bo'lib, uning asosiy qismi qarz kapitali hissasiga to'g'ri kelgan. Xususan, tahlil davrida qarz kapitalining jami passivlardagi ulushi minimal 82,0 % dan maksimal 91,8 % gacha bo'lgan oraliqda shakllangan. Shu bilan birga, 2020-yildan boshlab qarz kapitali ulushida pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2023-yilda uning nominal qiymati 14 136 937,8 mln so'mni tashkil etgan.

Bunda ichki moliyaviy salohiyatning nisbatan barqaror ta'minlanishi natijasida xususiy kapitalning jamg'arilish darajasi izchil oshib borgan. Xususan, 2023-yilda xususiy kapitalning jami passivlardagi ulushi 17,3 % ga yetgan bo'lib, bu jamiyat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'nalishida ijobiy siljishlarni aks ettiradi.

"Qo'qonbiokimyo" AJning investitsion sig'imi (2023-yilda jami passivlar — 214 412,3 mln so'm) "Navoiyazot" AJ darajasida bo'lmasa-da, kapitalni shakllantirish siyosatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ijobiy tendensiyalar kuzatilgan. Jumladan, 2018-yilda jami kapital 188 656,4 mln so'mni, uning tarkibidagi xususiy kapital ulushi esa 55,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 65,5 % gacha oshgan va xususiy kapitalning nominal qiymati 140 458,1 mln so'mni tashkil etgan.

Demak, mazkur jamiyatda aktivlarga avanslangan kapital tarkibida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan xususiy kapitalning ulushi nisbatan yuqori salmoqqa ega ekanligi kuzatiladi. Shu bilan birga, sof moliyaviy natijalarning ichki jamg'arilish darajasi oshib borishi sharoitida xususiy kapital ulushining 65,5 % gacha yetishi jamiyat moliyaviy mustaqilligining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

"Navoiyazot" AJda 2019–2023-yillar davomida xususiy kapital nominal qiymatining o'sish sur'ati davr boshi va oxiriga nisbatan 263,5 % ni tashkil etgan (3.3-rasmga qarang). Xususan, xususiy kapitalning nominal qiymati 2019-yilda 1 123 241 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 2 959 701,6 mln so'mga yetib, 2,6 barobarga oshgan.

Xususiy kapitalning dinamik o'sishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur o'sish asosan taqsimlanmagan foydaning sezilarli oshishi hisobiga ta'minlangan. Garchi 2017–2018-yillarda aksiyadorlik jamiyati faoliyati moliyaviy natijalar nuqtai nazaridan murakkab bo'lgan bo'lsa-da (ilovaga qarang), 2019-yilda taqsimlanmagan foydaning xususiy kapital tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan va asosiy ulush zaxira jamg'armasi hissasiga to'g'ri kelgan (2018-yilda — 46,9 %, nominal qiymati 526 916,3 mln so'm).

2022-yilda taqsimlanmagan foydaning ulushi eng yuqori darajaga (51,1 %) yetgan. 2023-yilda nisbatan pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, xususiy kapitalning umumiy jamg'arilish darajasida taqsimlanmagan foydaning ulushi 43,8 %, uning nominal qiymati esa 1 295 337,8 mln so'mni tashkil etgan (2-jadval).



2-jadval. “Navoiyazot” AJda xususiy kapital tarkibi va dinamikasi to’g’risida ma’lumot (2019–2023-yillar), mln so’mda³

Xususiy kapital nomi / Yillar	2019	Ulushi, %	2020	Ulushi, %	2021	Ulushi, %	2022	Ulushi, %	2023	Ulushi, %	2019-yilga nisbatan 2023-yildagi o’sish, %
Nizom kapitali	61 319,54	5,5	61 742,47	5,4	59 596,31	2,5	59 596,31	1,9	483 024,3	16,3	787,7
Zaxira fondi	526 916,3	46,9	521 861,7	45,2	617 585,2	26,4	688 331,9	21,8	683 340,9	23,1	129,7
Taqsimlanmagan foyda	41 949,09	3,7	77 005,24	6,7	854 386,5	36,5	1 616 259,0	51,1	1 295 337,8	43,8	3 087,9
Maqsadli moliyalashtirish va tushumlar	468 822,1	41,7	468 822,1	40,6	468 822,1	20,0	468 822,1	14,8	485 004,2	16,4	103,5
Kelgusi xarajatlar va to’lovlar uchun zaxiralar	24 234,01	2,2	24 147,95	2,1	338 679,1	14,5	328 362,7	10,4	12 994,4	0,4	53,6
Jami xususiy kapital	1 123 241,0	100	1 153 579,0	100	2 339 069,0	100	3 161 372,0	100	2 959 701,6	100	263,5

Ushbu aksiyadorlik jamiyatida taqsimlanmagan foydaning yuqori o’sish sur’atlari tahlil qilinayotgan davrda moliyaviy-xo’jalik faoliyatining samaradorlik ko’rsatkichlarining yuqori darajada shakllanishi bilan bevosita bog’liqdir. Shuningdek, ayrim holatlarda kapital hajmining oshishi aktivlarni qayta baholash natijalari bilan izohlanadi. 2023-yildagi nisbiy kamayish esa taqsimlanmagan foyda hisobidan dividend to’lovlarini amalga oshirish hamda uning bir qismini ustav kapitaliga yo’naltirish bilan bog’liq bo’lgan.

Ma’lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida nizom (ustav) kapitali jamiyatning huquqiy maqomi va moliyaviy poydevorini tashkil etadi. Unga o’zgartirish kiritish, xususan, nominal qiymatni kamaytirish murakkab yuridik va iqtisodiy asoslarni talab etadi. Ushbu jarayon “Aksiyadorlik jamiyatlari to’g’risida”gi qonunga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Nizom kapitalining nominal qiymati 2019-yilga nisbatan 2023-yilda 787,7 % ga oshib, jami xususiy kapitaldagi ulushi 16,3 % gacha yetgan. Shunga qaramay, jamiyat xususiy kapitali tarkibida nizom kapitalining ulushi jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlash uchun qonunchilikda belgilangan eng kam miqdorni ta’minlovchi kafolat fondi sifatidagi ahamiyatidan nisbatan past darajada qolmoqda.

Taqsimlanmagan foydaning yuqori ulushi sharoitida ham korxona kapitali tarkibida qarz mablag’lariga muayyan darajada bog’liqlik saqlanib qolishi, qarzlariga xizmat ko’rsatish xarajatlari nuqtayi nazaridan moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun yetarli miqdorda zaxira jamg’armalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, zaxira jamg’armasining yuqori ulushi amaldagi qonunchilik talablarining to’liq bajarilganligini ko’rsatadi.

“Navoiyazot” AJ xususiy kapitali tarkibida maqsadli moliyalashtirish ulushi pasayish tendensiyasini namoyon etgan bo’lsa-da, u uzoq vaqt davomida xususiy kapitalning salmoqli qismini tashkil qilib kelgan. Xususan, 2019–2022-yillarda maqsadli moliyalashtirishning nominal qiymati 468 822,1 mln so’mni tashkil etib, uning jami xususiy kapitaldagi ulushi 41,7 % dan 14,8 % gacha qisqargan. Ushbu pasayish nominal qiymatning kamayishi bilan emas, balki jamiyat moliyaviy-xo’jalik faoliyati samaradorligining oshishi natijasida xususiy kapitalning boshqa elementlari, xususan, taqsimlanmagan foyda hajmining sezilarli o’sishi hisobiga yuzaga kelgan.

Jamiyatning yirik investitsiya loyihalari asosan xorijiy sarmoyalar hisobiga moliyalashtirilgan. Jumladan, azot kislotasi ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi uchun 216,6 mln AQSH dollari, metanol negizida mahsulotlar ishlab chiqarish loyihasi uchun esa 435 mln AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etilgan. Bundan tashqari, strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish hamda kompensatsiyalanadigan narxlar asosida mahsulot realizatsiyasini qo’llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjeti mablag’lari hisobidan subsidiyalar ajratilgan.

Xususiy kapital tarkibida kelgusi xarajatlar va to’lovlar uchun zaxiralarni shakllantirish siyosatida ham o’zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, 2019-yilda jamiyat xususiy kapitali tarkibida kelgusi xarajatlar uchun 24 234,0 mln so’m miqdorida zaxira shakllantirilgan bo’lsa, 2021-yilga kelib ushbu ko’rsatkich 338 679,1 mln so’mga yetib, jami xususiy kapitaldagi ulushi 14,5 % ni tashkil etgan. 2023-yilda esa ushbu element 12 994,4 mln so’m

3 www.openinfo.uz rasmiy saytiga joylangan yillik moliyaviy hisobotlar asosidagi muallif hisob-kitoblari.



gacha qisqartirilgan. Mazkur holat 2021-yillarda yirik xarajatlar bilan bog'liq majburiyatlarning mavjudligi va ularni qoplash maqsadida vaqtinchalik zaxira shakllantirish strategiyasi qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan, "Navoiyazot" AJ faoliyati davomida ustav va zaxira kapitalini oshirish orqali tashqi qarzlar bog'liqlikni nisbatan kamaytirishga intilgan. Bu esa qarz bozorlaridagi xavflarni pasaytirish hamda moliyaviy mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, 2021-yilda zaxiralarning keskin oshishi va keyingi yillarda ularning qayta qisqarishi jamiyat tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida ehtiyotkor boshqaruv qarorlari qabul qilinganidan dalolat beradi.

Xususiy kapital har qanday tadbirkorlik subyekti muvozanatlashgan moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim kafolat hisoblanadi. Chunki xususiy kapitalning taqsimlanmagan foyda hisobiga o'sishi hamda ushbu foyda asosida iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllantirilishi ichki moliyaviy samaradorlik va ichki moliyaviy salohiyatdan oqilona foydalanish natijasida barqaror moliyaviy manbalar shakllanishini anglatadi.

Buxgalteriya balansiga muvofiq, taqsimlanmagan foyda tadbirkorlik subyekti tomonidan yaratilgan, ammo manfaatdor tomonlar o'rtasida hali taqsimlanmagan foyda sifatida e'tirof etiladi. Uning shakllanishini quyidagi soddalashtirilgan model orqali ifodalash mumkin:

$$F_{nd}^{n+1} = F_{nd}^n \pm F_r - D - E_o \quad (1)$$

Demak, hisobot yili oxiridagi taqsimlanmagan foyda F_{nd}^{n+1} hisobot yili boshidagi taqsimlanmagan foyda F_{nd}^n ga soliqlar to'langandan keyingi sof moliyaviy natija F_r ,ni qo'shish yoki ayirish hamda sof foydadan to'langan dividendlar D ,ni chegirish orqali aniqlanadi. Shuningdek, sof foyda hisobidan nizom yoki zaxira kapitalini to'ldirish bilan bog'liq xarajatlar E_o , ham taqsimlanmagan foydaning nominal qiymatiga ta'sir ko'rsatadi.

Mayers va Majluf ichki moliyalashtirish manbalariga ustuvorlik berib, axborotlar assimetriyasi sharoitida tashqi moliyalashtirishning nisbatan qimmat ekanligini ilmiy asoslab berganlar. Fisher Blek va Mayron Shouls ham sof foyda hisobiga ichki moliyalashtirishni moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi eng ishonchli manba sifatida baholab, uning aksiyalar bozor qiymatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. J. Lintner esa kompaniyalar bozor qiymatini maksimallashtirishda moliyalashtirish strategiyasini taqsimlanmagan foydani strategik tarzda saqlash va uni yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirish bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi.

Demak, yuqorida keltirilgan tahlillardan ko'rish mumkinki, deyarli barcha tadqiq etilgan iqtisodchi olimlar taqsimlanmagan foydadan imkon qadar ichki investitsiyalash instrumenti sifatida foydalanishni tavsiya etadilar. Ular taqsimlanmagan foydaning iqtisodiy mohiyatiga asoslangan holda uni reinvestitsiya va dividend fondlari o'rtasida taqsimlash jarayonida kompaniya bozor qiymatini maksimallashtirishga yo'naltirilgan strategik rivojlanishda ichki moliyalashtirishning eng oqilona manbai sifatidagi rolini alohida ta'kidlaydilar. Shu ma'noda, taqsimlanmagan foyda passiv xarakterga ega bo'lib, kompaniya ishtirokchilari oldidagi majburiyatlarning nominal qiymatini ham ifodalaydi. Shuning uchun ushbu mablag'lardan foydalanish faqat kompaniya mulkdorlarining roziligi asosida amalga oshiriladi.

Taqsimlanmagan foyda bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida kompaniyaning istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan moliyaviy xizmatlar tizimi manfaatlari bilan aksiyadorlarning moliyaviy manfaatlari o'rtasida muayyan muvozanat shakllanadi. Mazkur manfaatlar uyg'unligi asosida qabul qilingan qarorlar kompaniya qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu masalaning nazariy yechimi markazida Maykl Yensen va Uilyam Meklin tomonidan ishlab chiqilgan "Firma nazariyasi" doirasidagi ilmiy qarashlar turadi. Ularning fikriga ko'ra, sof foydani taqsimlash jarayonida prinsipiallar (aksiyadorlar) va agentlar (moliyaviy xizmatlar tizimi yoki moliyaviy menejerlar) o'rtasida manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga keladi. Tabiiyki, kompaniya rivojlanishida agentlar o'z manfaatlarini ustuvor qo'yishga intiladi, bu esa har doim ham prinsipiallar, ayniqsa minoritar aksiyadorlar manfaatlariga mos kelavermaydi. Mazkur qarama-qarshilik ma'lum darajada agentlik xarajatlarini keltirib chiqaradi. Ushbu xarajatlar monitoring xarajatlari, manfaatlarni uyg'unlashtirish uchun to'lovlar hamda optimal ko'rsatkichlardan chetlanishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiq etilgan uchta korxona orasida "Navoiyazot" AJning aktivlari, kapitali va xususiy kapitali tarkibiy tuzilmasi yuqorida ko'rib chiqilgan moliyaviy barqarorlikning deduktiv-mantiqiy modellariga to'liq mos keluvchi optimal tuzilmani shakllantirmagan. Aktivlar tarkibida immobilizatsiya qilingan elementlar hamda muomala fondlarining yuqori ulushi ishbilarmonlik faolligining oshishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, kapital tarkibida majburiyatlar ulushining yuqoriligi va xususiy kapitalning ichki moliyaviy salohiyat hisobiga jamg'arilish darajasining nisbatan pastligi muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Mazkur kompaniyada 2013–2017-yillar davomida moliyaviy-xo'jalik faoliyatining samaradorligi past bo'lgan bo'lsa-da (ilovaga qarang), 2018-yildan boshlab strategik rivojlanishga qaratilgan tizimli islohotlar natijasida korxonaning mulkiy qiymatlari va ularning manbalari tarkibida, shuningdek, moliyaviy natijalar samaradorligida muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan ijobiy sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda. Biroq, muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlik elementlarining amaldagi holati hamda moliyaviy natijalar samaradorligi korxona bozor qiymatini to'liq maksimallashtirish, investitsion faoliyatni ichki moliyaviy salohiyat hisobiga yanada kengaytirish va bozordagi raqobat pozitsiyasini mustahkamlash uchun hali yetarli darajada emas.

Aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotlarning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga to'liq moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish uchun ayrim ishlab chiqarish sikllarini avtomatlashtirish hamda ishchi-xodimlar malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarni muntazam tashkil etish zarur.

Shuningdek, korxonalarning rivojlanish strategiyasini takomillashtirish, ichki moliyaviy imkoniyatlarni to'liq mobilizatsiya qilish va o'sish nuqtalarini aniqlash maqsadida ichki va tashqi audit tizimini har yili muntazam ravishda o'tkazish tavsiya etiladi. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslanib, moliyaviy diagnostika instrumentlaridan foydalanish hamda kontrolling tizimi orqali boshqaruvning "rejalashtirish – operativ boshqaruv – nazorat" funksional elementlarini o'zaro bog'langan va tizimli tarzda tashkil etish korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. Xususiy kapitalni ichki moliyaviy imkoniyatlar hisobiga oshirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha taktik vazifalar rejas⁴

№	Chora-tadbirlar nomi	Mazmuni	Muddat	Mas'ul bo'limlar	Maqsad indikatori
1	Dividend siyosatini qayta ko'rib chiqish	2025–2027-yillarda foydaning 40 %ini dividend to'lovlariga, 60 %ini qayta investitsiyalashga yo'naltirish	2025-yil 2-chorak	Moliya bo'limi, Yuridik bo'lim	Reinvestitsiya ulushi ≥ 60 %
2	Investitsiya portfelini shakllantirish	Taqsimlanmagan foyda hisobidan eksport yo'nalishiga mo'ljallangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish	2025-yil 4-chorak	Investitsiya bo'limi	Yangilangan investitsiya portfeli (kamida 1 ta loyiha)
3	Foydaning bir qismini zaxira jamg'armasiga yo'naltirish	Moliyaviy xavf-xatarlarga qarshi qoplash mexanizmini ta'minlovchi zaxira jamg'armasini shakllantirish (foydaning 10 %)	2025-yil 3-chorak	Moliya bo'limi, Audit bo'limi	Zaxira jamg'armasi shakllantirilgan
4	Qo'shimcha aksiyalar chiqarish (Bonus Issue)	2026-yilda taqsimlanmagan foyda hisobidan ustav kapitalini 10 %ga oshirish	2026-yil 2-chorak	Yuridik bo'lim, Moliya bo'limi	Ustav kapitali +10 %
5	Texnologiya va raqamlashtirishga investitsiyalarni oshirish	Ammiak, selitra va PVX ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish va raqamlashtirishni kengaytirish	2026-yil oxiri	Ishlab chiqarish bo'limi, IT bo'limi	Kamida 2 ta loyiha avtomatlashtirilgan
6	Ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish	Havoni taqsimlash qurilmalari hamda ammiak saqlash omborlarini yangilash	2026-yil 3-chorak	Infratuzilma bo'limi, Investitsiya bo'limi	2 ta infratuzilma obyektlari yangilangan
7	Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun maxsus fond tashkil etish	Taqsimlanmagan foydaning 5 %ini ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirish	2027-yil 1-chorak	Tadqiqot bo'limi, Raqamlashtirish bo'limi	Maxsus fond tashkil etilgan

Yuqorida belgilangan istiqboldagi chora-tadbirlar sof foyda, ya'ni ichki moliyaviy salohiyat hisobiga ishlab chiqarishni texnologik jihatdan modernizatsiya qilish orqali intensiv rivojlanish modeliga o'tishni hamda yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishni ta'minlaydi. Natijada sof foydaning yuqori darajada jamg'arilishi yuzaga kelib, bu bevosita biznes faoliyatining moliyaviy natijadorligini oshirish orqali muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

4 "Navoiyazot" AJ rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida aniqlangan tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, qarz kapitaliga haddan tashqari yuqori darajada bog'liqlik moliyaviy dastak samaradorligi past bo'lgan sharoitda xususiy kapital rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuningdek, qarz mablag'lariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning ortishi joriy sharoitda likvidlilik darajasining pasayishi va to'lov qobiliyatini yo'qotish xavfining kuchayishiga olib keladi. Mazkur holat qarz majburiyatlarining qiymati va ularning muddatlar bo'yicha tarkibiy tuzilmasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, xususiy kapital foizsiz moliyaviy resurs sifatida kompaniyaga moliyaviy mustahkamlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Garchi xususiy kapital ulushi va uning dinamik o'sishi moliyaviy barqarorlikning muhim negizini shakllantirsa-da, moliyaviy dastak samaradorligi yuqori bo'lgan sharoitda qarz mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatlaridan voz kechish ishbilarmonlik faolligini oshirish nuqtayi nazaridan boy berilgan iqtisodiy imkoniyat sifatida baholanishi mumkin. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida oqilona qarz siyosati iqtisodiy nochorlik belgisi emas, balki tadbirkorlik va omilkorlikning muhim ifodasi sifatida qaraladi. Shu sababli kapital tarkibini optimal darajada shakllantirish, ya'ni xususiy va qarz kapitali o'rtasida mutanosib nisbatni ta'minlash korxona moliyaviy faoliyatining barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda xususiy mablag'larga haddan tashqari yuqori darajada tayanish holatlarini ham moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan kompleks baholash zarur bo'lib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xususiy va qarz kapitalining tarkibiy tahliliga, ularning o'zaro nisbatini moliyaviy risk, rentabellik va likvidlilik ko'rsatkichlari bilan uyg'un holda baholashga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brealey, R. A., & Myers, S. C. Principles of Corporate Finance.
2. Donaldson, G. Corporate Debt Capacity: A Study of Corporate Debt Policy and the Determination of Corporate Debt Capacity. — Boston, MA: Harvard University, Graduate School of Business Administration, Division of Research, 1961.
3. Myers, S. C., & Majluf, N. S. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. Journal of Financial Economics, 13, 187–221. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(84\)90023-0](https://doi.org/10.1016/0304-405X(84)90023-0)
4. Black, F., & Scholes, M. (1973). The pricing of options and corporate liabilities. The Journal of Political Economy, 81(3), 637–654 (May–June). — Chicago: The University of Chicago Press. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/1831029>
5. Lintner, J. (1956). Distribution of incomes of corporations among dividends, retained earnings, and taxes. The American Economic Review, 46(2), 97–113.
6. Barklam, H. Pecking order theory: explanation and relevance in corporate finance. Investment Guide. <https://www.investmentguide.co.uk/pecking-order-theory-explanation-and-relevance-in-corporate-finance/>
7. Damodaran, A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. — New York: Wiley, 2012.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", 32-modda. — <https://lex.uz/acts/6567>
9. Muallif hisob-kitoblari: www.openinfo.uz rasmiy saytida joylashtirilgan yillik moliyaviy hisobotlar asosida.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
